



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
TRANSPORT NAZORATI INSPEKSIYASI

## B U Y R U Q

21 noyabr 2024 yil.

873-son

### **Transport nazorati inspeksiyasida davlat xaridlarini amalga oshirilishini tartibga solishni takomillashtirish to‘g‘risida**

O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyuldagagi “Davlat xaridlari shaffofligini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga doir qo‘sishimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5171-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-yanvardagi “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash choratadbirlari to‘g‘risida”gi 41-son, 2022-yil 31-yanvardagi “Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 46-son hamda 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga, Transport vazirligining 2023-yil 07-iyundagi 94-son buyrug‘iga muvofiq hamda Transport nazorati inspeksiyasida xaridlarni tashkil etishda shaffoflik va oshkoraliq tamoyillariga qat‘iy rioya qilinishini ta‘minlash, raqobatli usullarni amaliyotga joriy etish maqsadida,

### **BUYURAMA N:**

#### **1. Quyidagilar:**

Transport nazorati inspeksiyasida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq;

Transport nazorati inspeksiyasida xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yuzasidan eng yaxshi takliflarni tanlash va tenderni o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyasining namunaviy tarkibi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Boshliq o‘rinnbosarlari-boshqarma boshliqlari, boshqarma va bo‘linmalar rahbarlari, shuningdek, barcha manfaatdorlar mazkur buyruq talablariga qat‘iy rioya qilinishini ta‘minlasin.

3. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan inspeksiyaning 2023-yil 11-sentabrdagi ““Transport nazorati inspeksiyasida” davlat xaridlarini tartibga solish to‘g‘risida” 11-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Devonxona (D.Fazilova) mazkur buyruq inspeksiya markaziy apparati mas'ul ijrochilarga yetkazilishini ta'minlasin.
5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Boshliq**



**J.A.Karimov**

“Inspeksiya”ning  
2024-yil “21” noyabrdagi  
873-som buyrug‘iga  
1-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi  
Transport nazorati inspeksiyasining markaziy apparatida xarid qilish  
tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi  
NIZOM**

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasining markaziy apparatida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda — Nizom) O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 276-som qarori bilan tasdiqlangan Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasining (keyingi o‘rinlarda inspeksiya) markaziy apparatida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

**I-bob. Umumiylar**

1. Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:  
**davlat xaridining tashabbuskori** — inspeksiya markaziy apparatining tarkibiy tuzilmasi;  
**davlat xaridi** — tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) davlat buyurtmachilari tomonidan pulli asosda olish;  
**xarid komissiyasi** — inspeksiyaning buyrug‘iga asosan tashkil etilgan va xarid qilish tartib-taomillari g‘olibini tanlash to‘g‘risida qarorlar qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan kollegial organ;  
**narx preferensiysi** — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 21-avgustdagги PQ-4812-som qarori l-bandи “a” kichik bandining to‘rtinchи xatboshisiga asosan tanlov va tenderning xarid qilish hujjatlarida ko‘rsatilgan talablarga mos keladigan har bir lot bo‘yicha xorijiy yetkazib beruvchilar bilan birga mahalliy ishlab chiqaruvchilarning takliflari olingan bo‘lsa, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga o‘n besh foiz miqdorida narx preferensiysi beriladi;  
**davlat xaridlarining reja-jadvali** — inspeksiya tomonidan yil va chorak davomida xarid qilinishi rejallashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni nazarda tutuvchi hujjat;  
**davlat xaridlarining elektron tizimi** — elektron davlat xaridlari jarayonidagi xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazishda davlat xaridlarining

subyektlari hamkorligini ta'minlaydigan tashkiliy, axborotga oid va texnik yechimlarning dasturiy majmui;

**shaxsiy kabinet** — elektron davlat xaridlarida ishtirok etishni hamda zarur axborotni joylashtirishni va undan foydalanishni ta'minlaydigan, davlat xaridlari, subyektlari, xarid komissiyasining mas'ul kotibi, xarid qilish tartib-taomillarining davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlarining maxsus axborot portalidagi va (yoki) davlat xaridlarining elektron tizimidagi individual sahifasi.

2. Inspeksiya xaridlarini amalga oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy siyosat ustuvorliklari, yuqori texnologik va innovatsion ishlab chiqarishlarning yaratilishi, qulay ekologik vaziyatning saqlanishi, shuningdek, davlat xaridlarini elektron shaklda o'tkazishning umumiy qoidalari va shartlari hisobga olinadi.

3. Inspeksiya tomonidan xodimlarni fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomaga asosida jalb etishni nazarda tutuvchi xarid qilish tartib-taomillarini elektron shaklda o'tkazish majburiy hisoblanmaydi.

4. Inspeksiya bilan manfaatlar to'qnashuviga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi bo'lishi mumkin emas.

## **2-bob. Inspeksiyaning xaridlar faoliyatini amalga oshirish bo'yicha boshqaruva organlari**

5. Inspeksiyaning xaridlar faoliyatini amalga oshirish bo'yicha boshqaruva organlari tizimiga quyidagilar kiradi:

- a) **xarid komissiyasi;**
- b) **Moliya-iqtisod bo'limi;**
- c) **davlat xaridining tashabbuskori.**

6. Xarid komissiyasi:

xarid komissiyasi **eng yaxshi takliflarni tanlash** va **tender** orqali davlat xaridlarini amalga oshirish uchun tashkil etiladi, uning tarkibi olinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xususiyatlarini hisobga olgan holda inspeksiya markaziy apparati tarkibiy bo'linmalaridan, tovarning (ishning, xizmatning) miqdori, sifati, assortimenti va bahosi bo'yicha murakkab hisob-kitob qilish zarurati yuzaga kelgan taqdirda tegishli soha bo'yicha ovoz berish huquqiga ega ekspertlar jalb etilgan holda shakllantiriladi hamda inspeksiya rahbariyatining tegishli buyrug'i bilan tasdiqlanadi;

xarid komissiyasi toq sonli va kamida yetti nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi;

xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning mas'ul kotibi olib boradi. Mas'ul kotib davlat xaridini amalga oshirishda tashabbus ko'rsatgan tarkibiy bo'linma mas'ul ijrochisi hisoblanadi;

xarid komissiyasi a'zolari o'zlariga biriktirilgan shaxsiy kabinet orqali davlat xaridining tashabbuskori tomonidan taqdim etilgan texnik topshiriqlar, shartnomaga va xarid bo'yicha boshqa hujjatlar, shuningdek, xaridlar qiymatining bozor narxlariga muvofiqligini baholash uchun ochiq axborot manbalaridan yoki xo'jalik

yurituvchi subyektlar tomonidan taqdim etilgan kamida uchta taklifni o'rganib chiqib, elektron raqamli imzo bilan kelishadi;

xarid predmetining miqdori, sifati, assortimenti va bahosi bo'yicha murakkab hisob-kitob qilish zarurat yuzaga kelganda, baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi;

Inspeksiya davlat xaridini amalga oshirish bo'yicha qaror xarid komissiyasi a'zolari umumiylar sonining ko'philik ovozi bilan qabul qilinib, qarorlar barcha ishtirokchilar uchun majburiy xarakterga ega.

### 7. **Moliya-iqtisod bo'limi:**

**elektron do'kon, eng yaxshi takliflarni tanlash, boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion va tender** orqali o'tkaziladigan hamda qurilish sohasidagi davlat xaridlarini amalga oshiradi;

davlat xaridlarining elektron tizimida ishtirokchilarning takliflarini xarid qilish hujjatlarini rasmiylashtirish talablariga mos kelishi bo'yicha tekshirishni amalga oshiradi va tekshirish natijalarini xarid komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim qiladi;

xarid komissiyasining har bir a'zosiga va mas'ul kotibiga o'z vazifalarini amalga oshirish uchun davlat xaridlarining elektron tizimida shaxsiy kabinet ochadi;

xarid komissiyasining vakolatiga kiritilgan masalalarni ko'rib chiqish uchun xarid komissiyasining a'zolari va mas'ul kotibining muloqot qilish imkoniyati davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan yopiq chat orqali ta'minlaydi;

xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlangan xarid hujjatlari va tanlov (tender) g'olib bilan imzolangan shartnoma ijrosini hamda inspeksiya markaziy apparatining tegishli mas'ul bo'linmalariga yetkazilishini ta'minlaydi.

Inspeksiyaning davlat xaridlariga tayyorlarlik bosqichlarini amalga oshiradi;

davlat xaridlarining yillik reja-jadvali joriy yilning 25-martiga qadar, kelgusi chorak uchun davlat xaridlarining choraklik reja-jadvallari joriy chorak oxirgi oyining 25-sanasiga qadar maxsus axborot portalida joylashtirib boradi;

elektron davlat xaridlari ishtirok etish uchun avans to'lovlarini kiritadi;

To'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shaftnomalar bo'yicha davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat xaridlari o'tkazilishi haqidagi e'londarni joylashtiradi.

## **3-bob. Inspeksiyaning davlat xaridlarini amalga oshirish turlari**

### **a) elektron do'kon:**

"Milliy do'kon" yacheykasi orqali amalga oshirilib, bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining **yigirma besh ming baravarigacha** (budget buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining **ikki ming besh yuz baravarigacha**) qiymatdagi tovarlarning, bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining **yuz baravarigacha** (budget buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining **ellik baravarigacha**) qiymatdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridlari amalga oshirilishi mumkin;

### **b) auksion:**

boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining **yigirma besh ming baravarigacha** (budget buyurtmachilari uchun **olti ming baravarigacha**) qiymatdagi tovarlarning davlat xaridlari amalga oshirilishi mumkin; xizmatlar va ishlarning davlat xaridi auksion obyekti bo‘la olmaydi;

**d) eng yaxshi takliflarni tanlash:**

eng yaxshi takliflarni tanlash orqali bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining **yigirma besh ming baravarigacha** (budget buyurtmachilari uchun **olti ming baravarigacha**) qiymatdagi tovarlarning (ishlarning xizmatlarning) davlat xaridlari amalga oshirilishi mumkin;

**e) tender:**

tender o‘tkazish orqali bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining **yigirma besh ming baravaridan ortiq** (budget buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining **olti ming baravaridan ortiq** tovarlarning (ishlarning xizmatlarning) davlat xaridlari amalga oshirilishi mumkin;

**f) to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar:**

to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan davlat buyurtmachilariga tender o‘tkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi berilgan taqdirda amalga oshiriladi;

**g) qurilish sohasi bo‘yicha:**

qurilish (obyektlarni loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash) sohasidagi davlat xaridlari “**Shaffof qurilish**” milliy axborot platformasi orqali amalga oshiriladi;

bir shartnoma bo‘yicha qiymati bazaviy hisoblash miqdorining **olti ming baravaridan ko‘p** bo‘lgan ishlar, xizmatlar ularning narx va hajm parametrlarini baholash qismi bo‘yicha “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUKning ijobiy xulosasi olinadi;

bir shartnoma bo‘yicha qiymati bazaviy hisoblash miqdorining **olti ming baravaridan kam** bo‘lgan ishlar, xizmatlar narx va hajm parametrlarini baholash qismi bo‘yicha ekspertizaga “Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi” DUK yoki ijobiy xulosasi asos hisoblanadi.

#### **4-bob. Inspeksiyaning xaridlar faoliyatini amalga oshirish tartibi**

8. Inspeksiya davlat xaridlari **elektron do‘kon, auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash, tender o‘tkazish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar**, shuningdek, **qurilish sohasidagi xaridlarni** amalga oshirish tartibiga asoslanadi.

9. Xo‘jalik va texnik jihozlar, interyer, qurilish-ta’mirlash bo‘yicha xaridlar **davlat xaridi tashabbuskorining** bildirgisi asosida bevosita **moliya-iqtisod bo‘limi** tomonidan **elektron do‘kon** va **auksion** o‘tkazish orqali amalga oshiriladi;

10. **Eng yaxshi takliflarni tanlash, tender hamda qurilish sohasida** davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi:

eng yaxshi takliflarni tanlash, tender o‘tkazish **xarid komissiyasi** tomonidan amalga oshiriladi;

tovarning (ishning, xizmatning) miqdori, sifati, assortimenti va bahosi bo‘yicha murakkab hisob-kitob qilish zarurati yuzaga kelgan taqdirda, **davlat xaridi tashabbuskori** tomonidan texnik topshiriq, shartnomalar va tanlov o‘tkazish haqidagi e’lonning matni ishlab chiqilib, xaridlar qiymatining bozor narxlariga muvofiqligini baholash uchun ochiq axborot yoki boshqa manbaalardan olingan ma’lumotlar asosida o‘rganib chiqilib, bildirgi asosida **Moliya-iqtisod bo‘limi** bilan majburiy kelishilgan holda inspeksiya rahbariyatiga taqdim etiladi;

davlat xaridining tashabbuskori tomonidan inspeksiya rahbariyatiga taqdim etilgan bildirgi ma’qullangandan (Viza qo‘yilgandan) keyin ushbu bildirgi asosida davlat xaridlarini amalga oshirish uchun inspeksiya buyrug‘i rasmiylashtiriladi;

inspeksiya buyrug‘ida **xarid komissiyasi a’zolari** va **mas’ul kotibi** shakllantiriladi hamda xaridlarni amalga oshirish bo‘yicha ijrochi sifatida **Moliya-iqtisod bo‘limi** belgilanadi;

davlat xaridlari bo‘yicha e’lon **Moliya-iqtisod bo‘limi** tomonidan xarid.uzex.uz elektron platformasiga (keyingi o‘rinlarda — platforma) o‘rnatilgan tartibda joylashtiriladi;

e’lon davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtirilganidan keyin xarid komissiyasining mas’ul kotibi xarid komissiyasi a’zolarini xarid bo‘yicha platformaga joylashtirilgan e’lon bilan tanishib chiqishi hamda o‘zining elektron raqamli imzosi orqali kelishib berishi haqida xabardor qiladi;

e’lon xarid komissiyasi a’zolari bilan kelishilgandan keyin xarid komissiyasi raisining shaxsiy kabinetiga tasdiqlash uchun kiritiladi;

xarid komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlangan e’lon platformaga joylashtiriladi;

platformaga joylashtirilgan e’lon natijasi bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqish va baholash xarid komissiyasining mas’ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi;

xarid komissiyasining mas’ul kotibi ishtirokchilarning takliflari bo‘yicha ko‘rib chiqilgan va baholangan e’lon natijasini ko‘rib chiqish va elektron raqamli imzo bilan kelishish maqsadida xarid komissiyasi a’zolariga kiritiladi;

e’lon natijasi xarid komissiyasi a’zolari bilan kelishilgandan keyin xarid komissiyasi raisining shaxsiy kabinetiga tasdiqlash uchun kiritiladi;

e’lon natijasi bo‘yicha tasdiqlangan g‘olib ishtirokchi davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik rejimda aniqlanadi.

11. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar **Moliya-iqtisod bo‘limi** tomonidan amalga oshiriladi.

## 5-bob. Yakuniy qoidalar

12. Mazkur Nizom bilan davlat xaridlari sohasidagi belgilanmagan masalalar qonunchilik hujjatlarida o‘rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

13. Xarid qilish tartib-taomili natijasi bo‘yicha tuzilgan shartnomaga qo‘srimcha kelishuv shartnomaning muhim shartlari o‘zgartirilmagan holda, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilishi mumkin.

14. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

**“Inspeksiya”ning  
2024-yil “21”noyabrdagi  
873-son buyrug‘iga  
2-ilova**

**Transport nazorat inspeksiyasida xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yuzasidan eng yaxshi takliflarni tanlash va tender orqali davlat xaridlarini o’tkazish bo‘yicha xarid komissiyasining**

**TARKIBI**

<b>Xarid komissiyasining raisi:</b> Inspeksiya boshlig‘i		—J.Karimov
Xarid komissiyasi raisining o‘rinbosari	Lavozimiga ko ‘ra	—Boshliq o‘rinbosari-boshqarma boshlig‘i (davlat xaridi tashabbuskorining bevosita rahbari bo‘lmagan o‘rinbosar)
<b>Xarid komissiyasining a‘zolari:</b> Yuridik bo‘lim boshlig‘i		— Sh.Jurayev
Moliya-iqtisod bo‘limi boshlig‘i		— G‘.Nurmatov
AKTni joriy etish va axborot xavfsizligi bo‘limi		— Sh.Nabiyev
Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo‘yicha bosh mutaxassisi (Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul)		— O‘.Ochilov
Axbarot-tahlil va ijro nazorati bo‘limi		— D.Axunjanov
Xarid komissiyasining mas’ul kotibi		— F.Aymatov

Izoh.

\*Mazkur komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tganda yoki bo‘lmagan vaqtda (xizmat safari, kasallik davri) ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar yoxud tegishli funksiyalarni bajarayotgan shaxslar komissiya a‘zolari hisoblanadi.

\*\*Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va davlat buyurtmachisining yuqori turuvchi tashkiloti mutaxassislarini jalb etish mumkin.